



XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

TRANSCHEGARAVIY GIDRORESURLARDAN BARQAROR FOYDALANISHNING
SIYOSIY-HUQUQIY MEKANIZMLARI VA ULARNING FALSAFIY-MA'NAVIY ASOSLARI



2-IYUN
2026-YIL



Qo'qon shahri,
Qo'qon davlat universiteti



Xalqaro
miqyosda



“GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLAR SHAROITIDA BARQAROR SUV SIYOSATI”

Hakimov Akmaljon Mirzag'aniyevich

Qo'qon davlat universiteti

“Falsafa va dinshunoslik” kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: mazkur maqolada global ekologik muammolar kuchayib borayotgan hozirgi davrda barqaror suv siyosatini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Suv resurslarining kamayishi, iqlim o'zgarishi, ekologik inqirozlar hamda demografik o'sish sharoitida suv xavfsizligini ta'minlashning dolzarb masalalari yoritiladi. Shuningdek, barqaror rivojlanish tamoyillari asosida suv resurslarini boshqarish, ekologik-etika va xalqaro hamkorlikning ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, suv siyosati, ekologik xavfsizlik, suv resurslari, iqlim o'zgarishi, ekologik-etika, suv tanqisligi, yashil iqtisodiyot.

XXI asrda insoniyat oldida turgan eng murakkab muammolardan biri ekologik barqarorlikni ta'minlash hisoblanadi. Global iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, ekologik muvozanatning buzilishi va suv tanqisligi bugungi kunda ko'plab davlatlar taraqqiyotiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Iqlim o'zgarishi, aholi sonining ortishi, sanoatlashuv va urbanizatsiya jarayonlari natijasida dunyo miqyosida toza ichimlik suvi tanqisligi kuchaymoqda. Ayniqsa, transchegaraviy daryolar, yer osti suvlarining kamayishi, suv havzalarining ifloslanishi hamda ekologik muvozanatning buzilishi ko'plab davlatlarda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka jiddiy xavf tug'dirmoqda. Shu bois “Global ekologik muammolar sharoitida barqaror suv siyosati” mavzusi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Barqaror suv siyosatining dolzarbligi, avvalo, suvning inson hayoti, oziq-ovqat xavfsizligi, energetika, qishloq xo'jaligi va ekologik tizimlar uchun strategik resurs ekanligi bilan belgilanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining katta qismi suv tanqisligi mavjud hududlarda yashamoqda va kelajakda bu muammo yanada chuqurlashishi prognoz qilinmoqda. Suv resurslaridan oqilona foydalanmaslik, ekologik talablarni inobatga olmasdan amalga oshirilayotgan iqtisodiy faoliyat natijasida ko'plab mintaqalarda cho'llanish, biologik xilma-xillikning kamayishi va ekologik inqiroz holatlari yuzaga kelmoqda.

Mazkur mavzuning dolzarbligi Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston misolida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Mintaqada suv resurslarining asosiy qismi transchegaraviy daryolar hisobiga shakllanadi. Orol dengizi fojiasi, suv taqsimoti bilan bog'liq ekologik va geosiyosiy muammolar, qishloq xo'jaligida suvdan samarasiz foydalanish holatlari suv siyosatini takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, suv resurslarini boshqarishda ekologik-etika tamoyillarini joriy

etish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasiga asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, barqaror suv siyosati ekologik xavfsizlikni ta'minlash, jamiyat taraqqiyotining sivilizatsiyaviy asoslarini mustahkamlash hamda kelajak avlod manfaatlarini himoya qilish bilan ham uzviy bog'liqdir. Suvga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirish, ekologik madaniyatni rivojlantirish va resurslardan foydalanishda adolat tamoyillarini qaror toptirish bugungi davrning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli global ekologik muammolar sharoitida barqaror suv siyosatini tadqiq etish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Suv inson hayoti, biosfera va iqtisodiy taraqqiyotning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli suv resurslarini boshqarish masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ekologik, siyosiy va axloqiy muammo sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, kelajakda suv tanqisligi global xavfsizlikka tahdid soluvchi asosiy omillardan biriga aylanishi mumkin. Shu jihatdan barqaror suv siyosatini shakllantirish va uni amaliyotga tatbiq etish dolzarb ilmiy hamda strategik vazifadir.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida suv resurslarini boshqarish va ekologik barqarorlik masalalari bo'yicha muhim ilmiy qarashlar shakllangan. Jumladan, amerikalik olim Garrett Hardin umumiy foydalaniladigan tabiiy resurslardan, jumladan suvdan nazoratsiz foydalanish ekologik inqirozga olib kelishini asoslab bergan. Elinor Ostrom esa mahalliy hamjamiyatlar tomonidan tabiiy resurslarni samarali boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqib, suv resurslarini boshqarishda institutsional yondashuvlarning ahamiyatini ko'rsatgan. Shuningdek, Peter Gleick suv xavfsizligi, ekologik tahdidlar va global suv siyosatining strategik jihatlarini chuqur tahlil qilgan.

Markaziy Osiyo mintaqasida suv muammolari, asosan, transchegaraviy suv resurslari, Orol dengizi inqirozi va ekologik xavfsizlik bilan bog'liq holda o'rganilgan. O'zbekistonlik olimlar tomonidan suv resurslaridan oqilona foydalanish, ekologik madaniyat, “yashil iqtisodiyot” va barqaror taraqqiyot masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ayniqsa, Orolbo'yi hududidagi ekologik muammolar, suv tanqisligining ijtimoiy oqibatlari va suv siyosatini takomillashtirish masalalari keng tadqiq etilgan.

“Suv resurslaridan foydalanishda asosiy muammo – qishloq xo'jaligidagi suv taqsimoti va iste'molidagi samaradorlikning pastligidir. Bu esa mavjud suv resurslarining optimal boshqarilishini ta'minlashga to'squinlik qilmoqda”[1].

Tadqiqotlarda, umumiy suv resurslarini samarali boshqarish uchun Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida mintaqaviy hamkorlik zarurligini ta'kidlaydilar. Markaziy Osiyoda ichimlik suvi tanqisligini bartaraf etish uchun quyidagi usullar taklif etiladi:

qishloq xo'jaligi va maishiy foydalanishda suvni tejaydigan texnologiyalar va amaliyotlarni ilgari surish.

suv yo'qotilishini kamaytirish va samaradorlikni oshirish uchun mavjud sug'orish infratuzilmasini yangilash.

suv ta'minotini to'ldirish uchun yomg'ir suvlarini yig'ish tizimlarini ishlab chiqish.

Mavzuning falsafiy jihatlarini ham zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda muhim o'rin egallaydi. Ekologik-etika, ekologik ong, inson va tabiat munosabatlari, sivilizatsion taraqqiyot hamda ekologik xavfsizlik konsepsiyalari doirasida suv resurslariga nisbatan mas'uliyatli munosabat masalasi yoritilgan. Shu jihatdan, suv siyosatini faqat iqtisodiy yoki texnologik muammo sifatida emas, balki umuminsoniy qadriyatlar, ekologik madaniyat va barqaror sivilizatsion rivojlanish bilan bog'liq murakkab ijtimoiy hodisa sifatida talqin etish tendensiyasi kuchaymoqda.

Daryolar va suv qatlamlari kabi suv resurslarini taqsimlovchi mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish suvni teng boshqarish va taqsimlashga yordam beradi. Buning uchun samarali diplomatiya va suv almashish bo'yicha kelishuvlar talab etiladi.

[Afg'oniston](#) shimolida [Tolibon](#) tomonidan [Amudaryo](#) suvini burish uchun qurilayotgan Qo'shtepa kanali, uzunligi 285 km bo'lishi kutilmoqda. Kanal qurilishi 2022-yilda boshlangan lekin Afg'oniston haligacha transchegaraviy daryo suvlaridan foydalanish bo'yicha hech qanday hududiy yoki xalqaro shartnomalarga qo'shilmagandi. Shuningdek, O'zbekiston, Turkmaniston va Qozog'iston BMTning 1992-yildagi suv konvensiyasiga ham qo'shilgan, ammo Afg'oniston bu kelishuvga ham qo'shilmagandi. [O'zbekiston](#) kanalning qishloq xo'jaligiga salbiy ta'sir ko'rsatishidan xavotir bildirdi. Shuningdek, kanalga Amudaryodan suvni burish natijasida [Orol dengizi](#) falokati yanada og'irlashishi aytilmoqda.

“Jahon banki tadqiqotlariga ko'ra, 2050 yilga borib, Sirdaryo havzasidagi suv resurslari 2-5 % ga, Amudaryo havzasida esa 10-15 % ga kamayishi mumkinligi prognoz qilingan. O'z navbatida, toza ichimlik suvi tanqisligi mintaqa umumiy yalpi ichki mahsulotining 11 % ga pasayishiga, suv resurslaridan foydalanish tartibining muvofiqlashtirilmasligi tufayli esa har yili kamida 1,75 mlrd AQSh dollari yo'qotilishiga olib kelishi mumkin” [2].

O'zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to'g'risida”gi Qonuniga asosan respublikada suvdan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, suvdan foydalanishni bevosita yoki havza (hududiy) boshqarmalari orqali tartibga soluvchi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 iyuldagi “Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori, 2020 yil 10 iyuldagi “O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi va 2023 yil 23 iyundagi “Ma'muriy islohotlar doirasida suv xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmonlari qabul qilindi. Natijada mamlakatimizda barcha yer usti suv ob'ektlarida suvning oqilona boshqarilishi, suvdan foydalanish va suv iste'moli qoidalariga rioya etilishi hamda suv xo'jaligi sohasidagi huquqbuzarliklarni aniqlash, ularning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 31-maqsadida suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo'yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish va shu orqali kamida 7 milliard kub metr suvni iqtisod qilish, suv xo'jaligi ob'ektlarida elektr energiyasi iste'molini kamaytirish hamda suv xo'jaligi ob'ektlarini davlat-xususiy

sharikchilik tamoyillari asosida boshqarish nazarda tutilgan. Mazkur strategiyaning 34-maqсадida esa respublika aholisining ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasini 87 % ga yetkazish, 32 ta yirik shaharlar va 155 ta tuman markazlarida oqova suv tizimlarini yangilash belgilangan. Shuningdek, 2023 yil 11 sentyabrda "O'zbekiston-2030" strategiyasi qabul qilinib, uning 3-bo'limida suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo'yicha tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar belgilangan. Joriy yilning 1 aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori qabul qilinib, unga ko'ra 2023 yilda mavjud suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- mavjud suv resurslarini suv iste'molchilari orasida qat'iy taqsimlagan holda foydalanish;
- suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni takomillashtirish;
- suv resurslarining boshqaruviga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish.

O'zbekiston Respublikasi suv xavfsizligi ta'minlash masalalariga nafaqat milliy, balki mintaqaviy va xalqaro darajada e'tibor qaratmoqda. Davlatimiz rahbari doimiy ravishda turli xil sammitlar va uchrashuvlarda suv bilan bog'liq muammolarga ustuvor ahamiyat berib, bunda jahonning mazkur soha bo'yicha yetakchi ekspertlarini jalb etish hamda xalqaro tashkilotlar, shu jumladan, BMT imkoniyatlaridan keng foydalanish zarurligini qayd etib kelmoqda. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida Sh. Mirziyoev BMTning Preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi tomonidan ishlab chiqilgan "Amudaryo va Sirdaryo havzalari suv resurslaridan foydalanish to'g'risida"gi konvensiyalar loyihalarini qo'llab-quvvatlashini bildirib, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga doir muammolar, jumladan, mintaqaning umumiy suv resurslaridan birgalikda foydalanish kabi muhim masalani eslatib o'tdi. Joriy yilning sentyabr oyida davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida O'zbekiston tomoni "Suv resurslari bo'yicha maxsus vakili lavozimi" ta'sis etilishini qo'llab-quvvatlashini hamda Markaziy Osiyo suvni tejaydigan texnologiyalar platformasini yaratish jarayonida "Birlashgan Millatlar Tashkiloti – suv resurslari" mexanizmini ishga solib, eng ilg'or texnologiyalarni tatbiq qilish lozimligini ta'kidladi.

Global ekologik muammolar sharoitida barqaror suv siyosatini shakllantirish insoniyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biridir. Suv resurslarini oqilona boshqarish ekologik xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy barqarorlikka erishish va ijtimoiy farovonlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1].<https://kun.uz/25862028#> Suv resurslarini boshqarishning samarali tizimini yarata olamizmi? Yangi konsepsiya loyihasi to'g'risida yangiliklar portali

[2].<https://www.adb.org/sites/default/files/linked-documents/53120-001-ssa.pdf> Asian Development Bank . 2022. Sector assessment: agriculture, natural resources, and rural development in Uzbekistan. 9-10-p

3. Ashurov M. S. “Suv resurslarini barqaror boshqarish va foydalanishning asosiy muammolari hamda yechimlari”.// “RAQAMLI IQTISODIYOT” ILMIY-ELEKTRON JURNALI | 9-SON .2025

4. Djumayev N.M. “Markaziy osiyoda ichimlik suvining tanqisligi bilan bog‘liq muammoning yechish yo‘llari”. // "Экономика и социум" №7(122) 2024